Kalit so'zlar: dorivor o'simliklar, talab, ehtiyoj, flora, qayta ishlash, eksport, fermer, dehqon xo'jaliklari, tomorqa yer egalari, sog'liqni saqlash, farmatsevtika tarmog'i, sog'lomlashdirish.

Abstract: This article describes government support measures in the field of cultivation and processing of medicinal plants. The need and possibilities for growing useful medicinal plants on the agricultural land available in our country have been studied.

Key words: medicinal plants, demand, need, flora, processing, export, farmer, agricultural holdings, landowners, health-care, pharmaceutical industry, healthcare.

Аннотация: В данной статье описаны меры государственной поддержки в сфере выращивания и переработки лекарственных растений. Изучены необходимость и возможности выращивания полезных лекарственных растений на имеющихся в нашей стране сельскохозяйственных угодьях.

Ключевые слова: лекарственные растения, спрос, потребность, флора, переработка, экспорт, фермер, агрокондити, землевладельцы, здравоохранение, фармацевтическая промышленность, здравоохранение.

KIRISH

O'zbekistonda aholining dorivor o'simliklar mahsulotlariga bo'lgan talabi va ehtiyojini to'la va uzlusiz qondirish maqsadida keyingi yillarda davlatimiz tomonidan dorivor o'simliklarni yetishtirishga ixtisoslashgan korxonalariga katta e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-apreldagi PQ-4670-son "Yovvoyi holda o'suvchi o'simliklarni muhofaza qilish, madaniy holda yetishtirish, qayta ishlash va mavjud resurslardan oqilona foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qaroriga ko'ra: "Respublikada so'nggi yillarda dorivor o'simliklarni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, dorivor o'simliklar yetishtiriladigan plantatsiyalar tashkil etish va ularni qayta ishlash borasida izchil islohotlar amalga oshirilmoqda" [1].

Mahalliy floraga mansub 4,3 mingdan ortiq o'simliklarning 750 ta turi dorivor hisoblanib, ulardan 112 ta turi ilmiy tibbiyotda foydalanish uchun ro'yxatga olingan, shundan 70 ta turi farmatsevtika sanoatida faol qo'llanib kelinmoqda. 2019-yilda 48 million AQSH dollari qiymatidagi qayta ishlangan dorivor o'simliklardan olingen mahsulotlar eksport qilingan. Shu bilan birga, tahlillar dorivor o'simliklarni muhofaza qilish, ularning plantatsiyalarini tashkil etish, qayta ishlash orqali qo'shimcha qiymat zanjirini yaratish zarurligini ko'rsatmoqda" [2].

Shuningdek, mazkur qarorda ta'kidlanganidek, "Dorivor o'simliklar yetishtirish va qayta ishlashni yanada rivojlantirish uchun qulay muhit yaratish, sohaning eksport salohiyatini oshirish, shuningdek, ta'lim, ilm-fan va ishlab chiqarish jarayonlarini integratsiyalash maqsadida" O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi, Innovatsion rivojlanish vazirligi, O'mon xo'jaligi davlat qo'mitasi, Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi Farmatsevtika tarmog'ini rivojlantirish agentligining 2020-yil 1-maydan boshlab dorivor o'simliklarni yetishtirish, saqlash, birlamchi yoki chuqur qayta ishlash klasterlari (keyingi o'rnlarda – dorivor o'simliklar klasteri)ni tashkil etish, shuningdek, hududlarni dorivor o'simliklar yetishtirish bo'yicha ixtisoslashtirish to'g'risidagi takliflari ma'qullansin" deb belgilab qo'yilgan [1]. Ushbu qarordagi ilovaga muvofiq, Qashqadaryo viloyatida ham asosiy turdag'i dorivor o'simliklarni yetishtirishga ixtisoslashtiriladigan hududlar ro'yxatiga kiritilgan. Shuningdek, dorivor o'simliklar klasteriga yer maydoni viloyatlar hokimliklari va tashabbuskorlar o'tasida tuziladigan



bitim asosida ajratilishi, xorijiy investorlar ishtirokida tashkil etiladigan dorivor o'simliklar klasteriga yer maydoni Qishloq xo'jaligi vazirligi, o'rmon fondi yerlarida esa O'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasi bilan tuziladigan investitsiya kiritish to'g'risidagi shartnoma imzolanganidan so'ng Vazirlar Mahkamasi tomonidan ajratilishi, bunda dorivor o'simliklar klasterlariga yer maydoni dorivor o'simliklar yetishtirishga mos bo'lgan, yuridik va jismoniy shaxslarga ajratilmagan va qishloq xo'jaligi uchun mo'ljallangan yerdan, zahiradagi yerdan, shuningdek, lalmi va o'rmon fondi yerlaridan ajratilishi belgilab qo'yilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Bundan tashqari dorivor o'simliklar plantatsiyalari resurs tejovchi texnologiyalarni qo'llagan holda, "Har bir oila - tadbirkor" dasturi doirasida ajratiladigan, Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi, O'zbekiston fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalarini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi, xalqaro moliya institutlari mablag'lari hisobidan barpo etilishi ko'zda tutilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Innovatsion rivojlaniш vazirligi bilan birgalikda:

- ilmiy-tadqiqot va oliy ta'lim muassasalarini tomonidan amalga oshirilgan dorivor o'simliklarga doir ilmiy tadqiqotlar, yangi innovatsion ishlanmalar bo'yicha ma'lumotlar bazasini shakllantirish, shuningdek, ularning tizimli ravishda yangilab borilishini ta'minlash;
- tibbiyotda qo'llaniladigan dorivor o'simliklar kolleksiysi uchastkasi va genbankini tashkil etish;
- Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi Farmatsevtika tarmog'iни rivojlantirish agentligi bilan birgalikda ikki oy muddatda o'simlik xom ashyosini chuqur qayta ishlash asosida dor substansiyalari ishlab chiqarishni tashkil etish mexanizmlarini joriy etish bo'yicha chora-tadbirlar rejasini tasdiqlash ishlarini bajarish belgilangan.

Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligining markaziy apparatida Dorivor va ziravor o'simliklarni rivojlantirish bo'llimi negizida 5 ta shtat birligidan iborat dorivor o'simliklarni rivojlantirish boshqarmasi tashkil etilishi vazifasi topshirilgan.

Shuningdek, mazkur qarorda yo'qolib ketish xavfi ostida bo'lgan yovvoyi holda o'suvchi dorivor o'simliklar muhofazasini kuchaytirish, ularni tabiiy plantatsiyalar barpo etish yo'li bilan tiklash choralarini ko'rish, kamayib borayotgan tabiiy holda o'suvchi noyob dorivor o'simliklarni to'plash (g'amlash) va tashqariga olib chiqish uchun ruxsatnomalar ajratiladigan kvotaning kamida 50 foizi hajmida tabiiy plantatsiyalarni barpo etish sharti bilan berilishi ham belgilab qo'yildi [1].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-noyabrdagi "Dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlash, ularning urug'chiligini yo'lga qo'yishni rivojlantirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar ko'lamini kengaytirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4901-son qaroriga muvofiq esa respublika hududlarida dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlashga doir ilmiy tadqiqotlarning yagona bazasini yaratish, xorijiy davlatlarning ilg'or ilmiy ishlanmalarini o'rganib borish, yetakchi ilmiy muassasalar bilan hamkorlik o'rnatish hamda zamonaviy texnologiyalar, ilmiy ishlanmalarni respublikaga joriy etish va mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanishni kuchaytirish maqsadida:

- dorivor o'simliklarni ilmiy asosda yetishtirish va qayta ishlash, ulardan oqilona foydalanishning yagona strategiyasini shakllantirish va amalga oshirish;
- respublika hududidagi yovvoyi holda o'suvchi dorivor o'simliklar turlarini o'rganish va zahiralarini aniqlash, mavjud bioresurslar genofondini saqlash, onalik plantatsiyalarini tashkil etish;
- urug'lik materiallarini yetishtirish va tayyorlash, ko'paytirish, kolleksion ko'chatxonalar tashkil etish hamda ularning xom ashyolarini qayta ishlash bilan bog'liq ilmiy va amaliy tadqiqotlarni olib borish;
- dorivor o'simliklarni muayyan tuproq-iqlim sharoitini hisobga olgan holda madaniy holda yetishtirishni yo'lga qo'yish bo'yicha aniq ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqish;
- tuproq-iqlim sharoitlarini hisobga olib, madaniy holda yetishtiriladigan dorivor o'simliklarning agrotexnologik xaritalarini Qishloq xo'jaligi vazirligi va O'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasi buyurtmasiga ko'ra ishlab chiqish;
- dorivor o'simliklar kimyoviy tarkibini o'rganish, mahsulotini standartlash va sertifikatlash;
- dorivor o'simliklarga bo'lgan ichki va tashqi bozorlar talabini o'rganish bo'yicha marketing tadqiqotlarini o'tkazish;
- dorivor o'simliklar yetishtiruvchi va qayta ishlovchi fermer xo'jaliklari, tashkilotlar va boshqa subyektlar rahbarlari va mutaxassislarining malakasini oshirib borishga yo'naltirilgan dasturlarni tayyorlash va o'qitish tizimini tashkil etish vazifalarini bajarish maqsadga muvofiq [3].

Mazkur qarorga asosan dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlashda har bir muassasa tabiiy holda o'suvchi, shu jumladan, yo'qolib borayotgan dorivor o'simliklarni saqlash, xatlovdan o'tkazish, ularning madaniy



plantatsiyalarini yaratish, onalik maydonlari va ko'chatzorlarini tashkil etish, dorivor o'simliklarni yetishtirishga doir texnologik xaritalar ishlab chiqish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar va ishlanmalar ishlab chiqish uchun mutaxassislarni biriktirishi ko'zda tutilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bizning fikrimizcha, dorivor o'simliklarni yetishtirish va ulardan dori vositalarini ishlab chiqarishni tashkil etishga oid ilmiy tadqiqot natijalarini amaliyatga joriy etish uchun xalqaro moliya institutlarining grantlarini jalb etish hamda dorivor o'simliklar sohasi bo'yicha rivojlangan davlatlarga mutaxassislarni o'qitish uchun xorijiy stajirovkalar tashkil etish maqsadga muvofiq hisoblanadigan muhim vazifalardan biri sanaladi. Shuningdek, respublika oliv ta'lif muassasalari biologiya yo'nalishlarining 3 va 4-kurslarida tahsil olayotgan iqtidorli talabalar tarkibidan alohida guruhlarda chuqurlashtirilgan o'qitish amaliyatini yo'lga qo'yish, kadrlarga bo'lgan ehtiyojdan kelib chiqib, barcha qishloq xo'jaligiga ixtisoslashgan kollej va texnikumlarda mutaxassisliklar klassifikatsiyasini inobatga olgan holda "Dorivor o'simliklar yetishtirish agrotexnologiyasi" yo'nalishi bo'yicha kadrlar tayyorlashni yo'lga qo'yish ishlarini amalga oshirish lozim. Shuni ta'kidlash lozimki, albatta yuqorida keltirilgan qarorlar ijrosi dorivor o'simliklar yetishtirish va undan qo'shimcha qiymatga ega turli xil naflilikdagi mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, sifati va assortimentini ko'paytirishga olib keladi.

Dorivor o'simliklar yetishtirish va qayta ishlashni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimining asosiy maqsadi-pirovard mahsulotlar turi, hajmi va sifatini yaxshilash asosida xalqaro va ichki bozorda mustahkam o'rin egallashni va raqobatbardoshlikni ta'minlashdan iborat bo'lib, quyidagi muhim vazifalarni hal etishga yo'naltirilgan:

- dorivor o'simliklar yetishtirish va qayta ishlashning investitsion jozibadorligini oshirish bilan bir vaqtida chuqur qayta ishlangan dori-darmon mahsulotlar eksportini ko'paytirish;
- mahalliy va importga olingan dori-darmon mahsulotlar raqobatlashuvida adolatli raqobat prinsiplarini ta'minlash uchun zarur shart-sharoitlar yaratish;
- dorivor o'simliklardan olinadigan mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirish, energiya iste'moli va eko-logik muammolarini pasaytirish, ikkilamchi resurslar va ishlab chiqarish chiqitlaridan oqilona foydalanish;
- dori-darmon mahsulotlari assortimentini kengaytirish, sifatini oshirish va iste'mol xususiyatlarini yaxshilash;
- dorivor o'simliklar urug'chiligi va seleksiyasini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish;
- dorivor o'simliklar doni yetishtirish, qayta ishlash, saqlash va sotishgacha bo'lgan butun zanjir bo'yicha o'rmon va fermer xo'jaliklari, qayta ishlash korxonalari va boshqa tashkilotlar kooperatsiyalashuvini hamda integratsiyalashuvini rivojlantirish.

Bizning fikrimizcha, bu tizim dehqon va fermerlar, qayta ishlash korxonalari hamda iste'molchilarning manfaatlari himoyalanishini ta'minlashi lozim.

Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, tartibga solish davlat tomonidan chora-tadbirlari quyidagi guruhlardan tashkil topar ekan:

- ma'muriy hamda huquqiy - normativ dastaklar;
- bevosita iqtisodiy - moliyaviy dastaklar;
- bilvosita ta'sir ko'rsatishga mo'ljallangan dastaklar.

Tartibga solishning ma'muriy hamda huquqiy - normativ dastaklar yetishtirish, qayta ishlash va sotish jarayonidagi iqtisodiy munosabatlarni hamda tashqi savdo faoliyatini tartibga soladigan qonunlar, Prezident Farmonlari va Qarorlari, Vazirlar Mahkamasi Qarorlari, Davlat dasturlari, mahalliy hokimiyat qarorlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarni o'z ichiga oladi.

Bevosita ta'sir ko'rsatishga mo'ljallangan dastaklar davlat byudjeti va byudjetdan tashqari jamg'arma mablag'i, imtiyozli kreditlar, innovatsion faoliyatni moliyalashtirish rivojlantirish dasturlari, subvensiyalar, dotatsiyalar, tarmoqdagi investitsion dasturlar va subsidiyalar singari kabilar hisobidan qo'llab-quvvatlashdan iborat bo'ladi.

Bilvosita ta'sir ko'rsatishga mo'ljallangan dastaklarga O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining qayta moliyalashtirish stavkalari, valyuta kursi va valyutani majburiy sotish bo'yicha cheklowlar, bojxona to'lovleri, davlat xizmatlari va tijorat tashkilotlari xizmatlarining tariflari, soliq va majburiy to'lovlar stavkalarini pasaytirishlar, soliq imtiyozlari kiradi.

O'zbekistonda dorivor o'simliklar yetishtirish va qayta ishlash sanoati tarmog'ini tartibga solish bo'yicha barcha mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanilmayapti. Ushbu tarmoqni barqaror rivojlantirishda tashqi savdo munosabatlarini tartibga solish ham muhim ahamiyatga ega.

2022-yil 27-aprel kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Respublikada kavrak yetishtirishni rivojlanish va sanoatlashtirishni rag'batlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PF-116-soni farmonida kavrak yetishtirish bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik subektlariga bir qator imtiyozlar nazarda tutilgan. Xususan:

2022-yil 1-maydan boshlab 3 yil davomida:

Kavrak yetishtirishdan olgan daromadlari joriy hisobot (soliq) davri yakunlari bo'yicha jami daromadning 80 foizini tashkil etadigan tadbirkorlik subektlaridan olinadigan



- foyda solig'i,
- mol-mulk solig'i,
- yer solig'i,
- suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari 50% miqdorida qo'llaniladi.

2022-yil 1-iyuldan boshlab 2025-yil 1-yanvargacha "Yaylov xo'jaligini ri-vojlantirish" uyushmasi tizimidagi subektlarda faoliyat olib borayotgan mavsу-miy ishchilar uchun ijtimoiy soliq stavkasini 1 foiz miqdorida undiresh belgilandi.

Shunday qilib, davlat bevosita va bilvosita ta'sir dastaklari orqali dorivor o'simliklar yetishtiruvchi o'rmon, fermer xo'jaliklari va qayta ishlash korxonalari o'zlarining ishlab chiqarish jarayonini ta'minlaydigan darajada daromad olishlariga yordam beradi, aholining iste'molini qondirishni ham boshqaradi (1-jadval).

1-jadval: Iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha dorivor o'simlik materiallaridan foydalanish yo'nalishlari¹

Sanoat	Foydalanish yo'nalishi
Tibbiyot sanoati	Har xil shakldagi dorivor preparatlar (ekstraktlar, eliksirlar, siroplar, damlamalar, malhamlar, tabletkalar, suspenziyalar va boshqalar) sof va o'zgartirilgan shaklda
Oziq-ovqat sanoati	Ziravorlar, lazzat kuchaytirgichlar, xushbo'y moddalar sifatida
Kimyo sanoati	Uglerod manbai sifatida sorbentlar ishlab chiqarish uchun dorivor o'simlik materiallari ishlatalidi
Sellyuloza va qog'oz sanoati	Qisqa tolali tuzilishga ega dorivor o'simliklar qog'oz, karton, izolyasion plitalar ishlab chiqarishda xom ashyo sifatida ishlatalishi mumkin
Engil sanoat	To'qimachilik sanoati uchun xom ashyo sifatida uzun tolali tuzilishga ega dorivor o'simliklardan foydalanish mumkin
Yoqilg'i sanoati	Energetik dorivor o'simliklarning biomassasidan bioyoqilg'i sifatida foydalanish mumkin
Mikrobiologiya sanoati	Yem-xashak, ksilitol ishlab chiqarish uchun substrat sifatida foydalanishi mumkin
Qishloq xo'jaligi	Alohiba dorivor o'tlar yoki ularni qayta ishlash mahsulotlari hayvonlarni oziqlantirishda, aralash ozuqa, parhez qo'shimchalari sifatida ishlatalidi
Parfyumeriya va kosmetologiya sanoati	Terapevtik ta'sirga ega parfyumeriya va kosmetika preparatlari (kremlar, jellar, shampunlar, parfyumeriya, tualet suvlari, lakklar, balzamlar va boshqalar) tarkibida ishlatalidi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-noyabrdagi "Dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlash, ularning urug'chilagini yo'lga qo'yishni rivojlantirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar ko'lамини kengaytirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4901-sonli qaroriga muvofiq O'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasi, Qishloq xo'jaligi vazirligi, Innovatsion rivojlanish vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi va Fanlar akademiyasining "Shifobaxsh" dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlash markazi negizida O'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasi huzurida davlat muassasasi shaklidagi Dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlash ilmiy-ishlab chiqarish markazi (keyingi o'rinnlarda - Markaz)ni tashkil etish belgilangan^[3].


Markazning asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilandi:

- dorivor o'simliklarni ilmiy asosda yetishtirish va qayta ishlash, ulardan oqilona foydalanishning yagona strategiyasini shakllantirish va amalga oshirish;
- respublika hududidagi yovvoyi holda o'suvchi dorivor o'simliklar hududlarini o'rganish va zahiralarini aniqlash, mavjud bioresurslar genofondini saqlash, onalik plantatsiyalarini tashkil etish;
- tuproq-iqlim sharoitlarini hisobga olib, madaniy holda etishtiriladigan dorivor o'simliklarning agrotexnologik xaritalarini Qishloq xo'jaligi vazirligi va O'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasi buyurtmasiga ko'ra ishlab chiqish;
- ilmiy va amaliy tadqiqotlarni kolleksion ko'chatxonalar tashkil etish, urug'lik materiallarini yetishtirish va tayyorlash, ko'paytirish bilan birgalikda bog'lab bajarish;
- dorivor o'simliklarni muayyan tuproq-iqlim sharoitini hisobga olgan holda madaniy holda yetishtirishni yo'lga qo'yish bo'yicha aniq ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqish;
- dorivor o'simliklarga bo'lgan ichki va tashqi bozorlar talabini o'rganish bo'yicha marketing tadqiqotlarini o'tkazish;
- dorivor o'simliklar kimyoviy tarkibini o'rganish, mahsulotini standartlash va sertifikatlash;
- dorivor o'simliklar yetishtiruvchi va qayta ishlovchi fermer xo'jaliklari, tashkilotlar va boshqa subektlar rahbarlari va mutaxassislarining malakasini oshirish maqsadida tegishli dasturlar ishlab chiqish va o'qitishni amalga oshirish.

¹ Muallif tomonidan shakllantirildi.



**DORIVOR O'SIMLIKLARNI YETISHTIRISH, QAYTA ISHLASH VA REALIZATSİYA QILISH
TİZİMİNİ DAVLAT TOMONIDAN QO'LLAB – QUVVATLASHMEXANİZMLARI**



2-rasm: Dorivor o'simliklarni yetishtirish, qayta ishslash va sotish tizimini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlari²

Tadqiqotlarimiz davomida dorivor o'simliklarni joylashtirish, yetishtirish va qayta ishslash bo'yicha ixtisoslashgan hududlarni shakllantirish, eng qulay hududlarda ayrim turdag'i dorivor o'simliklarni yetishtirishni chuqur ixtisoslashdirish va konsentratsiyalash bo'yicha aynan davlat tomonidan quyidagilar amalga oshirilishi zarurligi asoslandi:

2 Muallif tadqiqotlari asosida shakllantirildi.



- dorivor o'simliklar bo'yicha faol tadbirkorlik va innovatsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish bilan bozor innovatsion mexanizmini: "bozor tartibga soluvchi, davlat esa tuzatish kirituvchi" prinsipi asosida muvofiqlashtirish;
- innovatsion loyihamlar va takliflar bankini, shuningdek ilm-fan yutuqlarini tarqatish va joriy etish bo'yicha xizmatlarni shakllantirishga yordam ko'rsatish.

Bizning fikrimizcha, yuqoridaqilarni bajarishda quyidagilarni nazarda tutish lozim:

- dorivor o'simliklar yetishtirish tarmog'ining tashkiliy-texnologik xususiyat-laridan kelib chiqqan holda aynan dorivor o'simliklarni yetishtiruvchi va qayta ishlash korxonalariga davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni bevosita va bilvosita mexanizmini kuchaytirish;
- davlat dorivor o'simlik xom ashya bozorida narx keskin tushib ketganida, garovli kreditlash mexanizmidan foydalangan holda, hosilni oldindan kelishilgan baho bo'yicha sotib olish majburiyatini oladi;
- kreditlash tizimini rivojlantirish. O'rmon, fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari uchun kreditlarni engillashtirish maqsadida davlat subsidiyalashni qo'llagan holda kredit resurslarini arzonlashtirishi, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining qayta moliyalashtirish stavkasini pasaytirish va boshqa choralarни ko'rishi zarur;
- agarda hosilning 25 % ni undan ko'prog'i yo'qotilan taqdirda nobud bo'lgan hollarda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan sug'urtalash tizimiga asoslangan mexanizmni joriy etish.

Ma'lumki, mustaqillikning dastlabki yillarda dorivor o'simliklar xom ashysiga jahon bozorida talab yuqori bo'lgan va qayta ishlash sanoati ichki ehtiyojni to'liq ta'minlay olmaganligi sababli dorivor o'simliklarni import qilish ustunlik qilgan.

O'tkazilgan tadqiqotlar dorivor o'simliklarni yetishtirish, ularni qayta ishlash va sotish tizimini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash bo'yicha AQSH, Yevropa Ittifoqi (YI), Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) mamlakatlari amaliyoti va O'zbekiston Respublikasida to'plangan tajribalarni umumlashtirishga imkon berdi.

Tadqiqot natijalaridan ma'lumki, bozor munosabatlari taraqqiy etgan xorijiy mamlakatlarda ham dorivor o'simliklarni yetishtirish, qayta ishlash va ichki hamda tashqi bozorda sotish samaradorligini oshirish uchun davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning bevosita va bilvosita dastaklaridan foydalaniлади. Bular asosan: byudjetdan moliyalashtirish, kreditlash, soliqqa tortish, baho va daromadlarni tartibga solish va boshqalar. Bunda deyarli barcha rivojlangan mamlakatlar dorivor o'simliklar xom ashysi eksporti va importi masalalarida agrar proteksionizm prinsipini yoqlaydilar. AQSH, G'arbiy Yevropa mamlakatlari, Xitoy va Kanadada dorivor o'simliklar yetishtirishni rivojlantirish bozor munosabatlarining rivojlan-ganligi bilan birga ularning davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va tartibga solish dastaklaridan ilmiy asosda, to'g'ri va samarali foydalaniши bilan bog'liq.

AQSH, G'arbiy Yevropa mamlakatlari, Xitoy va Kanadada dorivor o'simliklarni yetishtirish aholi sog'ligini muhofazasini ta'minlashga jiddiy ta'sir ko'sratmoqda.

Dunyo davlatlari tajribasi shuni ko'rsatadi, dorivor o'simlik xom ashysini ishlab chiqarishda kichik va o'ta korxonalar rivojlanishning muhim istiqbollariga ega. Dorivor o'simlik xom ashysi bilan ta'minlashda turli xo'jalik sohalari korxonalarini faol ishtirok etadilar.

Tadqiqot jarayonida dorivor o'simlik xom ashysini yetishtirish farmat-sevtika faoliyati uchun litsenziyaga ega bo'lgan tadbirkorlik subektlari tomonidan yangi dorivor o'simliklarni yoki ularning qismlarini tabiiy qayta ishlash bo'yicha operatsiyalar majmuasi ishlab chiqildi.

Dorivor o'simlik xom ashysini yetishtirishni davlat tomonidan tartibga solish har bir bosqichda xom ashyo sifatiga qo'yildigan talablarni amalga oshirishni tartibga solib, ushbu xom ashyonini ishlab chiqarish jarayoni ustidan doimiy nazoratni o'z ichiga oladi.

Dorivor o'simliklarni yetishtirish, qayta ishlash va sotish tizimining davlat tomonidan tartibga solinishi uni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Tegishli davlat tashkilotlari maxsus dasturlarni ham ishlab chiqishni rejalashtirishlari kerak.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Fikrimizcha, bunday yondashuv, dorivor o'simliklarni yetishtirishni ko'paytirish va xarajatlarini qisqartirish, tayyor dori-darmon mahsulotlar raqobatbar-doshligini oshirish va aholining dorivor o'simliklar dori-darmoniga bo'lgan ehtiyo-jini ta'minlashni oshirish bo'yicha ichki imkoniyatlarni aniqlashga yordam beradi.

O'zbekiston Respublikasi viloyatlari va hududlar darajasida dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlash tizimini qo'llab-quvvatlash chora tadbirlari quyidagilarni o'z ichiga olishi zarur:

- davlat tomonidan ko'mak berish;



- investitsiya jarayonlarni qo'llab- quvvatlash;
- innovatsiya aktivligini oshirishni ta'minlash;
- dorivor o'simliklarni yetishtirish, qayta ishslash va sotish tizimida ishlab chiqarish, ijtimoiy hamda boshqa bozor infratuzilmalarini rivojlantirishga ko'maklashish;
- dorivor o'simliklar bozorida barqaror konyunkturani ta'minlash maqsadida qayta ishlanadigan dorivor o'simliklar xom ashysi bo'yicha jamg'arma tashkil etish;
- tegishli korxona va tashkilotlarning klaster-kooperatsiyalashuvi va integratsiyalashuvi tizimini yo'lga qo'yish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-apreldagi "Yovvoyi holda o'suvchi dorivor o'simliklarni muhofaza qilish, madaniy holda etishtirish, qayta ishslash va mavjud resurslardan oqilona foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4670-son qarori. <https://lex.uz/docs/4785256>
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 20-maydagi "Dorivor o'simliklar xom ashyo bazasidan samarali foydalanish, qayta ishslashni qo'llab-quvvatlash orqali qo'shimcha qiymat zanjirini yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-139-sonli farmoni. <https://lex.uz/docs/6027102>
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-noyabrdagi "Dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishslash, ularning urug'chiligini yo'lga qo'yishni rivojlantirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar ko'lamini kengaytirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4901-sonli qarori. <https://lex.uz/docs/5125714>

Yashil

IQTISODIYOT
va
TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Telefon: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni 03.11.2022-yidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.

